

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 3 695,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 64,3 ming kishiga yoki 1,8 foizga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2089,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,5%), qishloq aholisi soni 1 606,2 ming kishini (43,5 %) tashkil etdi.


### E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **12,2 ming** kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **16,9 ming** nafarni tashkil etdi.
- **4,4 ming** ta vafot etganlar qayd etildi.
- Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlarida **5,2 ming** ta nikoh va **0,8 ming** ta ajralishlar ro'yxatga olindi.

## Farg`ona viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 285,1 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %) va Quva tumanida 253,3 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 92,0 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 76,4 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Uchko'prik, Qo'shtepa va Bog'dod, Toshloq tumanlarida 2,0 % ni, Farg'ona shahri va So'x, Beshariq, Buvayda tumanlarida 1,9 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Marg'ilon shahrida 1,3 % ni va Qo'qon shahrida 1,4 % ni tashkil etdi.



## Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi  
(2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi)



## Demografik holat



### Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 16,9 ming ta bola tug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,5 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,4 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Oltiariq tumani (16,5 promilledan 18,5 promillega) va Beshariq tumani (14,9 promilledan 16,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Farg'ona tumani (20,2 promilledan 19,3 promillega) va Quvasoy shahri (18,5 promilledan 17,5 promillega) kuzatildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (yanvar-mart, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	15273	16852	110,3
Farg'ona sh.	981	1123	114,5
Qo'qon sh.	996	1156	116,1
Quvasoy sh.	412	397	96,4
Marg'ilon sh.	1006	1075	106,9
Oltiariq	827	946	114,4
Qo'shtepa	807	905	112,1
Bag'dod	843	971	115,2
Buvayda	894	1021	114,2
Beshariq	807	920	114,0
Quva	955	1109	116,1
Uchko'prik	1046	1069	102,2
Rishton	834	952	114,1
So'x	252	274	108,7
Toshloq	910	966	106,1
O'zbekiston	1030	1093	106,1
Farg'ona	1020	991	97,1
Dang'ara	724	822	113,5
Furqat	464	557	120,0
Yozyovon	465	505	108,6

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 4,4 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2018 yilning mos davriga nisbatan ko'payish yuz bergan. 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ortgan.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Qo`qon shahri (4,5 promilledan 5,6 promillega), Oltiariq (3,6 promilledan 4,7 promillega), So`x (2,6 promilledan 3,4 promillega) va Quva tumanlarida (4,1 promilledan 4,9 promillega) kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
2,3 ming  
kishi



**Ayollar:**  
2,1 ming  
kishi

### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-mart, kishi)


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3957</b>	<b>4382</b>	<b>110,7</b>
Farg'ona sh.	352	384	109,1
Qo'qon sh.	275	342	124,4
Quvasoy sh.	92	119	129,3
Marg'ilon sh.	279	338	121,1
Oltiariq	181	242	133,7
Qo'shtepa	217	229	105,5
Bag'dod	235	208	88,5
Buvayda	172	208	120,9
Beshariq	245	243	99,2
Quva	252	308	122,2
Uchko'prik	222	292	131,5
Rishton	191	190	99,5
So`x	48	63	131,3
Toshloq	218	206	94,5
O'zbekiston	250	244	97,6
Farg'ona	242	252	104,1
Dang'ara	201	228	113,4
Furqat	162	183	113,0
Yozyovon	123	103	83,7

## Demografik holat

2019 yilning yanvar-martdekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,7 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,3 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,8 foizi o'simtalardan, 5,1 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,4 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 foizi yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 3,7 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 122 nafarni tashkil etib, ularning 44,3 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 18,0 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 26,2 foizi tug'ma anomaliyalardan, 4,1 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 3,3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi




**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholi-ning tabiiy o'sishi 12,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,2 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 11,3 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



**Tabiiy o'sish:**  
12,5 ming kishi



**Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti**




**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 5214 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 96,1 foizga kamaygan bo'lib, Oltiariq (kamayish sur'ati 81,1 foiz) va Beshariq (kamayish sur'ati 80,6 foiz) tumanlarida kamayish holatlari yuz berdi.



**Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti**

(2018 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 757 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 86,1 foizga tushgan bo'lib, Toshloq (51,2 foiz), va So'x (47,4 foiz) tumanlarida kamayish holatlari kuzatilgan.

## Demografik holat

### Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (yanvar-mart, kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>5426</b>	<b>5214</b>	<b>96,1</b>	<b>879</b>	<b>757</b>	<b>86,1</b>
Farg'ona sh.	274	346	126,3	101	100	99,0
Qo'qon sh.	347	362	104,3	105	97	92,4
Quvasoy sh.	95	90	94,7	28	31	110,7
Marg'ilon sh.	127	172	135,4	52	52	100,0
Oltiariq	322	261	81,1	29	31	106,9
Qo'shtepa	155	130	83,9	30	23	76,7
Bag'dod	372	322	86,6	47	44	93,6
Buvayda	302	274	90,7	46	33	71,7
Beshariq	618	498	80,6	46	38	82,6
Quva	417	403	96,6	59	39	66,1
Uchko'prik	296	332	112,2	32	32	100,0
Rishton	371	334	90,0	52	43	82,7
So'x	198	183	92,4	19	9	47,4
Toshloq	177	180	101,7	41	21	51,2
O'zbekiston	466	383	82,2	66	38	57,6
Farg'ona t.	293	307	104,8	43	52	120,9
Dang'ara	271	277	102,2	31	35	112,9
Furqat	222	237	106,8	34	25	73,5
Yozyovon	103	123	119,4	18	14	77,8





Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda viloyatda doimiy aholi sonining milliy tarkibini bo'yicha ulushi eng yuqori ko'rsatkichi foiz xisobida O'zbek millati 89,5 foiz, Tojik millati 5,9 foiz, Qirg'iz millati 2,0 foiz, Rus millati 1,2 foiz va boshqa millatga mansublar 1,4 foizni tashkil etadi.



### Millatlar



**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4188 kishini tashkil etdi



2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 4504 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosini minus 316 kishi bo'lib, 2018 yilning o'tgan shu davrida minus 393 kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi

	2018 yil	2019 yil
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3726	4188
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4119	4504
<b>Migratsiya saldosini</b>	-393	-316

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 462 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 385 kishiga ko'paygan.

2019 yilning 3 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi So'x tumani (minus 4 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona (608 kishi) shaharlarida qayd etildi.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **O. Holbekov**  
tel:(373) 230-87-33